

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 379 sahifa.
2025-yil, 19-oktyabr,

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG’URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIQ USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	



MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI

G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston milliy iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni samarali o'zlashtirish jarayonining amaldagi holati tahlil qilingan. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish hajmi, bandlik va hududlar rivojlanishiga ta'siri empirik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Shu bilan birga, investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha davlat siyosati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan. Tadqiqot natijalari xorijiy kapitalni jalb etishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish, investitsiya loyihalarining samaradorligini oshirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, milliy iqtisodiyot, investitsion muhit, iqtisodiy o'sish, kapital oqimi, investitsion siyosat, hududiy rivojlanish, investitsiya loyiholari.

Abstract. This article analyzes the current state of the process of attracting foreign investments to the national economy of Uzbekistan and their effective absorption. The impact of foreign investments on economic growth, production volume, employment and regional development is studied based on empirical data. At the same time, state policy on improving the investment climate, existing problems and ways to overcome them are highlighted. The results of the study serve to develop proposals for improving institutional mechanisms for attracting foreign capital, increasing the efficiency of investment projects and strengthening the competitiveness of the national economy.

Keywords: иностранные инвестиции, национальная экономика, инвестиционная среда, экономический рост, движение капитала, инвестиционная политика, региональное развитие, инвестиционные проекты.

Аннотация. В статье анализируется современное состояние процесса привлечения иностранных инвестиций в национальную экономику Узбекистана и их эффективное освоение. На основе эмпирических данных изучается влияние иностранных инвестиций на экономический рост, объем производства, занятость и региональное развитие. При этом освещаются государственная политика по улучшению инвестиционного климата, существующие проблемы и пути их преодоления. Результаты исследования служат для разработки предложений по совершенствованию институциональных механизмов привлечения иностранного капитала, повышению эффективности инвестиционных проектов и укреплению конкурентоспособности национальной экономики.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, национальная экономика, инвестиционная среда, экономический рост, потоки капитала, инвестиционная политика, региональное развитие, инвестиционные проекты.

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirish va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim omil hisoblanadi. Globallashuv sharoitida kapitalning erkin harakati davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy raqobatni kuchaytirar ekan, har bir mamlakat xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay shart-sharoit yaratishga intilmoqda. So'nggi yillarda xorijiy kapital ishtirokidagi loyihalar soni ortib, ularning tarmoq va hududiy tarkibi diversifikatsiyalanib bormoqda. Shu bilan birga, investitsiyalarni o'zlashtirishda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishning amaldagi holatini chuqur tahlil qilish, mavjud tendensiyalarni baholash va ularning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar oqimining asosiy yo'nalishlari, ularni o'zlashtirish samaradorligi hamda investitsion siyosatning rivojlanish dinamikasi tahlil qilinadi.

Iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri sifatida investitsiyalar yetakchi o'rinda turadi. Aynan investitsiya faoliyati korxonalarning kapital jamg'arish salohiyatini oshiradi, bu esa mamlakatning ishlab

chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish imkonini yaratadi. Xususan, xorijiy investitsiyalar O'zbekiston mintaqalari iqtisodiyotining izchil rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etib, iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini yangilash va bozor islohotlarini amaliyotda samarali ro'yobga chiqarishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish jarayoni jamg'armalarning hajmi va ularni investitsion faoliyatga yo'naltirish darajasiga, shuningdek, ishlab chiqarish tizimining modernizatsiyasi va xizmatlar sohasining rivojlanishiga bevosita bog'liqdir. Bu omillar o'zaro uzviy aloqada bo'lib, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni samarali o'zlashtirish masalasi xalqaro iqtisodiyotda eng ko'p tadqiq etilgan yo'nalishlardan biridir. Bu borada ko'plab xorijiy olimlar – P. Krugman, M. Obstfeld, D. Todaro, M. Melitz, va boshqalar o'z ishlarida investitsiyalarni iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish samaradorligi va texnologik yangilanish bilan bog'liq holda tahlil qilganlar [1].

Krugman va Melitz (2018) xorijiy investitsiyalar mamlakatlar o'rtasidagi ishlab chiqarish differensiallarini kamaytiruvchi omil sifatida xizmat qilishini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, transmilliy kompaniyalar tomonidan kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar (FDI) eksport salohiyatini oshiradi va mahalliy firmalarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi [1].

Anita Maček (2021) "to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar investor tomonidan nazorat qilinadigan yoki qabul qiluvchi mamlakatda joylashgan biznesni boshqarishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadigan kapitalni bir mamlakatdan boshqasiga o'tkazilishi va u aktiv yoki biznes bo'linmasini qisman yoki to'liq tasarruf etishni o'z ichiga olgan biznesga egalik huquqini tuzatish sifatida aniqlanishini" [2] qayd etadi.

Kaspar M.G. (2025) to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda Investitsiyalarni rag'batlantirish agentliklarining (IPA) ko'pincha kam baholanadigan rolini o'rgangan. Shuningdek mavzuni nafaqat nazariy yo'nalishlar bo'yicha, IPA va hukumatlar nuqtai nazaridan, balki amaliyotchilar va korporativ investorlar nuqtai nazaridan tahlil qilib, u to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha qarorlar qabul qilish jarayoni va uni keyinchalik amalga oshirishning yanada yaxlit tasvirini ko'rsatib, IPA ning milliy va mintaqaviy tuzilmalari va investitsiyalarni ilgari surish amaliyotini chuqur tahlil qilish orqali investitsiyalarni jalb qilishning zamonaviy usullarini keng tadqiq qilgan [3].

Daniel Nicholls xorijiy investitsiyalar landshaftini shakllantirayotgan ba'zi asosiy tendentsiyalar, muammolar va amaliyotlarni o'rganib, real sektor ishlab chiqaruvchilari va investorlar o'zlarining imkoniyatlaridan qanday qilib maksimal darajada foydalanishlari va muvaffaqiyatli sarmoyaga to'sqinlik qiladigan ba'zi muammolarini bartaraf etish uchun tavsiyalar beradi [4].

J.Hoshimov "jahonda xorijiy kapitalni jalb etish bo'yicha mamlakatlararo keskin kurash ketmoqda. Xorijiy investitsiyalar hajmi, uning sifati va qulay shartlardan foydalanish borasida rivojlangan mamlakatlarda yildan-yilga investitsion muhit jozibadorligini ta'minlashga xizmat qiladigan innovatsion instrumentlarning turli ko'rinishlari yaratib kelinmoqda" [5], deya ta'kidlagan.

M.Yo'ldoshevaga ko'ra "mamlakat ijobiy investitsiya imidjiga ega bo'lishi uchun o'zining jozibador investitsiya muhiti, real sektorida mavjud investitsion imkoniyatlari, e'tibortalab loyihalari, ko'plab potensial investorlari va shu kabi ko'plab investitsion ko'rsatkichlari to'g'risida xalqaro investitsiya bozori ishtirokchilariga ma'lumot bera olishi lozim" [6].

Sh.Sunatullayeva tomonidan "hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsion jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlar, hududlar investitsion jozibadorligini tahlil qilish va baholash uslubi" [7] masalalariga e'tibor berilgan.

Yuqoridagi olimlar va tadqiqotchilar qarashlarini hisobga olib, ta'kidlash joizki xorijiy investitsiyalar xorijiy kapital jalb etishning eng samarali shakllaridan biri sifatida ajralib turadi. Boshqa turdagi investitsion oqimlarga nisbatan nafaqat moliyaviy resurslarning oqimini ta'minlaydi, balki mamlakat ichki iqtisodiy tizimiga chuqur integratsiyalashgan holda, bir qator strategik afzalliklarni yuzaga keltiradi. Jumladan, ishlab chiqarish quvvatlari va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini kengaytirishda asosiy manba hisoblanadi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Globalashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishida xorijiy investitsiyalar oqimini jalb etish va ularni samarali o'zlashtirish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirishning joriy holati, tarmoqlar va hududlar bo'yicha taqsimlanish xususiyatlari hamda bu jarayonga ta'sir etuvchi omillar tizimli tahlil qilinib, tadqiqot natijalari asosida ilmiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqishda statistik tahlil, qiyosiy tahlil, grafik ifodalash va ilmiy abstraksiyalash kabi metodlardan foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Xorijiy investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi, yangi texnologiyalar va boshqaruv tajribalarini jalb qilish, eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Investitsiyalarning samaradorligi ularning qanday tarmoqlarga va qaysi hududlarga yo'naltirilganligiga bevosita bog'liq. So'nggi yillarda O'zbekistonda investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay iqtisodiy sharoitlar yaratish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.



1-rasm. Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (mlrd. so'mda) [8]

2020–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston iqtisodiyotida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi izchil oshib borgan. Agar 2020-yilda bu ko'rsatkich 210,2 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu raqam 493,7 trln so'mga yetgan. Bu esa 5 yil ichida investitsiyalar hajmi deyarli 2,35 baravarga oshganini ko'rsatadi.

Eng katta o'sish 2023–2024-yillarga to'g'ri keladi. Bu davrda asosiy kapitalga investitsiya hajmi 356,1 trln so'mdan 493,7 trln so'mga oshgan bo'lib, yiliga 38,6% dan ortiq o'sish sur'ati qayd etilgan. Bunday ko'rsatkich pandemiya davri va global iqtisodiy muammolarga qaramasdan O'zbekistonda investitsiyaviy faollik oshganini bildiradi.

Bu o'sish davlat tomonidan amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, sarmoyaviy muhitning yaxshilanishi va xorijiy investitsiyalar oqimini kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlarga bog'liqdir.

Eng katta sarmoyaviy o'sish Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Buxoro, Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida kuzatildi. Masalan, Buxoro viloyati: 12,2 trln. so'mdan 49 trln. so'mga (deyarli 4 baravar o'sish) oshgan berilgan davr mobaynida. O'rtacha o'sish sur'atlari Farg'ona, Samarqand, Namangan, Andijon viloyatlarida qayd etilgan. Nisbatan past yoki notekis o'sish Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida kuzatilgan bo'lib, bu hududlarda investitsiyaviy faollik muayyan davrlarda pasaygan.

1-jadval. Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi (mlrd. so'mda) [8]

	2020	2021	2022	2023	2024	2025 1-chorak
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2761.1	3035.2	3965.4	7329	14362.8	4075
Andijon viloyati	3489.3	5095.2	6947.2	11916.9	21245.4	5747.8
Buxoro viloyati	5866.1	12011.3	12626	22370.9	40401.9	6898.8
Jizzax viloyati	7765	4110.3	4911.1	10578.4	17568.9	3632.1
Qashqadaryo viloyati	14246.6	9298.2	7518.7	12262.9	23907.7	5963

Navoiy viloyati	10647.7	9204.2	9778.4	17607.3	27595	6015.8
Namangan viloyati	4470.6	3863.7	5127	10700	43959.2	10261.1
Samarqand viloyati	3949.5	5450.2	9971.9	12688	15065.3	7239.3
Surxondaryo viloyati	6053.9	5442.3	4894.5	12092.9	10087.4	4881.7
Sirdaryo viloyati	3503.7	4814.8	9771.1	12916.9	7912.8	4236.2
Toshkent viloyati	5650.6	9642.2	11583.3	26703.8	50029.4	11264.8
Farg'ona viloyati	4562.6	4934.5	6901.6	10333	12710.2	4255.2
Xorazm viloyati	1726.8	2778.3	2834.6	5528.4	8785.2	2412.5
Toshkent shahri	15065.3	21690.8	17033.3	28663.7	40165.1	8555.1

So'nggi besh yilda O'zbekistonga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlar hajmi yildan-yilga oshib borgan.

2020-yilda xorijiy investitsiya hajmi 89,8 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 333,8 trln so'mga yetgan. Bu degani, besh yil ichida xorijiy investitsiyalar hajmi 3,7 barobarga oshgan.


2023–2024-yillarda eng katta o'sish kuzatilgan bo'lib, aynan shu davrda davlat siyosatida investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha faol ishlar olib borilgan.

Toshkent shahri – 2020-yildagi 25,6 trln so'mdan 2024-yilda 97,2 trln so'mga oshgan. Buxoro viloyati – 5,8 trln so'mdan 40,4 trln so'mgacha ko'paygan. Toshkent viloyati va Toshkent shahri ham investorlar uchun jozibador hududlarga aylangan. Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida ham o'sish sekinroq kechgan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat investitsiya dasturi investitsiya siyosatining asosiy vositasi bo'lib, davlat kafolati ostida xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobiga amalga oshiriladigan ustuvor loyihalarni o'z ichiga oladi. Bugungi kunda 40 dan ortiq mamlakat investorlari mazkur dastur doirasida hamkorlik qilmoqda, bu esa O'zbekistonning xalqaro sarmoyadorlar orasidagi ishonchli mavqeini tasdiqlaydi.

Alohida ta'kidlash lozimki, milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish maqsadida Davlat investitsiya dasturiga xalqaro moliyaviy institutlar mablag'lari jalb etilmoqda. Xususan, nufuzli xorijiy banklar O'zbekistonda kredit liniyalarini ochish orqali kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyalashtirishni yo'lga qo'yan, bu esa iqtisodiy faollikni oshirishda muhim rol o'ynamoqda. Dastur ijrosining nazorati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

Xorijiy investorlar ishtirokida qo'shma korxonalar tashkil etish, zamonaviy talab va global bozordagi raqobat sharoitlariga mos faoliyatni yo'lga qo'yishning muhim vositasi hisoblanadi. Bu jarayon, eng avvalo, eksportga yo'naltirilgan, yuqori texnologiyalarga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni xalqaro bozorlarga yetkazib berish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shuningdek, qo'shma loyihalar orqali litsenziyalash, injiniring, lizing xizmatlarini rivojlantirish, intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish hamda ilmiy-texnik ishlanmalarning amaliyotga yo'naltirilgan natijalarini bozorga chiqarish uchun qulay sharoitlar vujudga keladi. O'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida eng yuqori ulushga ega bo'lgan investor davlatlar 2024-yil holatiga ko'ra:



2-rasm. O'zlashtirilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmida eng yuqori ulushga ega bo'lgan investor davlatlari [8].



Yuqoridagi rasmdan ko'rish mumkinki, Xitoy, Rossiya va Saudiya Arabistoni kabi davlatlar faol ravishda O'zbekistonga investitsiya kiritmoqda.

"Investorlar uchun qulay sharoit yaratish uchun Xalqaro Toshkent arbitraj markazi tashkil etildi hamda "investitsiya krediti", "investitsiya subsidiyasi" va "investitsion viza" kabi yangi mexanizmlar joriy qilindi.

O'zbekiston 2019-yilda birinchi marta Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ning "To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni tartibga solish cheklovlari indeksi"ga kiritildi va ushbu indeksga ko'ra, 2020-yilda jahonda 43-o'rinni, Osiyo mintaqasida 7-o'rinni qayd etdi. 2017–2022-yillarda O'zbekiston xalqaro Iqtisodiy erkinlik indeksi umumiy reytingida o'z o'rnini 31 pog'onaga yaxshilab, 148-o'rindan 117-o'ringa ko'tarildi. 2022-yilning noyabr oyida Xorijiy investorlar kengashining birinchi yalpi majlisi o'tkazilib, prezident keyingi 5 yilda sarmoyalar hajmini \$120 mlrd.ga yetkazish, kamida \$70 mlrd xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ko'zlanganini ta'kidlagandi. Bundan tashqari, Xorijiy investorlar kengashi huzurida doimiy faoliyat yuritadigan Investorlarning huquqini himoya qilish qo'mitasini tashkil etish taklifi bildirildi. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar ulushi asosan iqtisodiyotning sanoat (30,6%) va savdo (28,5%) sohalariga to'g'ri keladi" [9].


2-jadval. 2024-yil uchun hududlar kesmida xorijiy investitsiya va kreditlar(mlrd. so'mda) [10].

Hududlar	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar
O'zbekiston Respublikasi	44 104,4	6 838,6	34 495,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 154,1	412,8	2 508,1
Andijon	3 120,4	68,6	2 558,8
Buxoro	3 772,6	971,7	2 134,5
Jizzax	3 132,9	158,2	3 560,4
Qashqadaryo	904,1	1 071,5	3 987,4
Navoiy	1 383,4	64,2	2 330,4
Namangan	7 486,0	202,4	1 245,6
Samarqand	3 651,0	990,9	2 383,1
Surxondaryo	3 020,9	134,4	2 381,6
Sirdaryo	1 029,1	32,3	1 709,0
Toshkent viloyati	6 363,1	723,2	4 759,1
Farg'ona	2 414,3	530,6	1 153,2
Xorazm	590,3	172,7	1 649,5
Toshkent shahri	4 375,8	1 045,3	3 134,0

Jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlar asosida mamlakat bo'yicha jami 44 104,4 mlrd so'm to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, 6 838,6 mlrd so'm O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar va 34 495,3 mlrd so'm kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar jalb qilingan.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan viloyatiga to'g'ri kelib, bu yerda 7 486 mlrd so'm investitsiya jalb etilgan. Bu viloyatdagi investorlar uchun yaratilgan qulay sharoitlar va loyihalarning jozibadorligi bilan izohlanadi. Keyingi o'rinlarda Toshkent viloyati (6 363,1 mlrd so'm) va Toshkent shahri (4 375,8 mlrd so'm) joylashgan bo'lib, poytaxt va unga yaqin hududlar iqtisodiy jihatdan faol sanaladi. Eng kam to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar Xorazm viloyatiga jalb qilingan bo'lib, bu ko'rsatkich atigi 590,3 mlrd so'mni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlardan biri Toshkent shahrida kuzatilgan – 1 045,3 mlrd so'm, bu esa davlat tomonidan muhim strategik loyihalarga kafolat berilganidan darak beradi. Shuningdek, Qashqadaryo (1 071,5 mlrd so'm) va Buxoro (971,7 mlrd so'm) viloyatlarida ham yuqori miqdordagi kafolatli kreditlar jalb qilingan.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2024-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi(foizda) [10]

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlar quyidagi yo'nalishlarda eng ko'p jamlangan:

Ishlab chiqarish sanoati – 32,2% bilan eng yirik ulushga ega. Bu sanoat tarmog'i xorijiy investorlar uchun strategik ahamiyatga ega bo'lib, yuqori daromadli va tez sur'atlarda o'sayotgan soha hisoblanadi.

Elektr, gaz bilan ta'minlash – 22,7% ulush bilan ikkinchi o'rinda turadi. Energetika sohasi O'zbekistonda modernizatsiyaga muhtoj bo'lgan muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, investorlar tomonidan katta qiziqish uyg'otmoqda.

Tog'-kon sanoati – 13% ulush bilan uchinchi o'rinda. Bu tarmoq tabiiy boyliklarga boy bo'lgan O'zbekiston hududida an'anaviy tarzda xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi asosiy soha sanaladi.

Qishloq xo'jaligi – 9,7% ulushga ega bo'lib, bu soha oziq-ovqat xavfsizligi, eksport salohiyati va agrar islohotlarning jadallashuvi hisobiga xorijiy investorlar e'tiborini tortmoqda.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish va ularni samarali o'zlashtirish jarayoni mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy kapital uchun qulay huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratish, infratuzilma va moliyaviy tizimni modernizatsiya qilish borasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Natijada, ko'plab tarmoqlar va hududlarda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi yangi korxonalar tashkil etilib, ishlab chiqarish hajmi, eksport salohiyati va bandlik darajasi oshib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, xorijiy investitsiyalarni samarali o'zlashtirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda aholi farovonligini oshirishda strategik ahamiyatga ega omil hisoblanadi. Shu sababli ushbu yo'nalishda chuqur tahlil, uzoq muddatli rejalashtirish va innovatsion yondashuvlarni qo'llash O'zbekistonning barqaror iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishning tarmoq tuzilmasini modernizatsiya qilish, takror ishlab chiqarish jarayonini barqarorlashtirish hamda milliy xo'jalikni texnologik yangilashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, davlatning investitsiya siyosati sanoatni texnik jihatdan yangilash, yuqori qo'shilgan qiymatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda jahon bozorida milliy brendlarning mavqeini mustahkamlash uchun asosiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish uchun quyidagi muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Sarmoyadorni qiziqitiruvchi sohalarni aniqlash: investitsiya loyihalari va istiqbolli ob'yektlar bo'yicha axborot bazasini shakllantirish, aniq va asosli biznes-rejalar ishlab chiqish;

Banklar, investitsiya fondlari va lizing kompaniyalari faoliyatini rag'batlantirish va ularning investitsion loyihalardagi ishtirokini tizimlashtirish;

Hududiy investitsiya salohiyatini oshirish. Har bir viloyat va tuman miqyosida investitsion salohiyatga oid veb-portal ochish, mahalliy hokimliklar tomonidan loyihaviy axborotlarni tayyorlash va taqdim etish tizimini yo'lga qo'yish;



Hududlarda investitsion forumlar, seminarlar va xalqaro taqdimotlarni tashkil qilish orqali axborot shaffofligini ta'minlash;

Mazkur yo'nalishlarda izchil choralar ko'rilishi O'zbekistonning investitsion jozibadorligini yanada oshiribgina qolmay, balki milliy iqtisodiyotning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishiga turtki beruvchi muhim omillardan biriga aylanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Krugman, P., Obstfeld, M., & Melitz, M. International Economics: Theory and Policy. Pearson Education, 2018, p 701.
2. Maček A (ed.) (2021) Foreign Direct Investment Perspective through Foreign Direct Divestment. IntechOpen. <http://dx.doi.org/10.5772/intechopen.88720>.
3. Kaspar, M.G. (2025). Investment Promotion Agencies and Foreign Direct Investment (1st ed.). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781003244448>.
4. Nicholls, D. (2012). Foreign Direct Investment: Smart Approaches to Differentiation and Engagement (1st ed.). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781315582757>.
5. J.R.Hoshimov. Hududlar iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rivojlantirish masalalari. // Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, 2024. – 30 b.
6. M.B.Yo'ldosheva. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning samarali usullarini takomillashtirish. // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, 2025. – 17 b.
7. Sh.X.Sunatullayeva. Hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirish istiqbollari // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, 2024. – 5 b.
8. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments> O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
9. <https://imrs.uz/> Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institute ma'lumotlari.
10. https://stat.uz/img/images/invest-kiril_p16105.pdf O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100